

**BADIIY PERSONAJLARNING HISSIYOTLARINI NAMOYON
QILISHDA MUBOLAG‘A (GIPERBOLA)NING QO‘LLANILISHI
(O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA)**

Raxmonova Amira Ulfatovna

Samarqand davlat chet tillar instituti, Ingliz tili leksikologiyasi va stilistikasi
kafedrası, katta o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada mubolag‘a stilistik vositasiga berilgan turli ta’riflar o‘rganilib, talqin etilgan. Shuningdek, badiiy personajlarning hissiyotlarini namoyon qilishda mubolag‘a (giperbola)ning ahamiyati tadqiq etilib, o‘zbek va ingliz tillaridagi badiiy asarlardan misollar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: mubolag‘a (giperbola), stilistika, hissiyot, personaj, hissiyot, emotivlik.

**THE USE OF HYPERBOLE IN THE MANIFESTATION OF EMOTIONS
PERSONAGES (ON THE EXAMPLE OF UZBEK AND ENGLISH)**

Rakhmonova Amira Ulfatovna

Samarkand State Institute of Foreign Languages,
Department of English Lexicology and Stylistics
Senior Lecturer, Independent Researcher

Abstract

In this article, various definitions of the stylistic means of hyperbole are studied and interpreted. The significance of hyperbole in the expression of emotions of personages was also investigated and examples from novels in Uzbek and English were analyzed.

Keywords: hyperbole, Stylistics, emotion, character, emotion, emotionality.



СПОЛЬЗОВАНИЕ ГИПЕРБОЛЫ В ВЫРАЖЕНИИ ЭМОЦИЙ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПЕРСОНАЖЕЙ (НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКСКОГО И АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКОВ)

Рахмонова Амира Улфатовна,
соискатель, старший преподаватель
кафедры лексикологии и стилистики английского языка
Самаркандского государственного
института иностранных языков

Аннотация. Статья посвящена изучению и истолкованию различных определений стилистического средства преувеличения. На основе анализа примеров, взятых из художественной литературы на узбекском и английском языках, определено значение гиперболы в проявлении эмоций художественных персонажей.

Ключевые слова: гипербола, стилистика, эмоция, характер, эмоция, эмоциональность.

Stilistik vositalar aksariyat hollarda badiiy matnning nufuzini belgilashda asos sifatida markaziy o'rinda turadi. Ko'p qo'llanishi bilan ajralib turuvchi stilistik vositalardan biri hisblangan bu – mubolag'a (giperbola) bo'lib, personajlarning hissiyotlarini namoyon qilishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Mubolag'a so'zi o'zbek tilining izohli lug'atida kuchaytirish, bo'rttirish, giperbola so'zlari bilan izohlangan. Tasvirlanayotgan yoki ta'riflanayotgan kimsa, narsa, hodisa va shu kabilarni o'quvchilarga yaqqol, ta'sirli qilib yetkazish uchun ularning sifatlarini orttirib, bo'rttirib ko'rsatish maqsadida ishlatilgan so'z yoki ibora mubolag'adir [Begmatov E. va boshq., II jild. 2008, B. 623].

Mubolag'a so'zi arab tilidan olingan bo'lib, "kattalashtirish"; "kuchaytirish" ma'nosini bildiradi. Badiiy asarda tasvirlanayotgan badiiy timsol holati yoki harakatini bo'rttirib, kuchaytirib ifodalash san'ati demakdir. Bunday xildagi tasvirda badiiy timsol xususiyatlari yaqqolroq namoyon bo'ladi, o'quvchi ko'zi oldida yorqinroq gavdalanadi [Xojiahmedov A. 1998. B. 9].

Giperbola "gapning ekspressivligini oshiradigan maqsadli bo'rttirish" hisoblanadi [Арнольд. И. 2002. С. 125].

Mubolag'ada san'atkor tasvirlanayotgan shaxs, predmet, voqea-hodisalarni boshqalaridan ajratib ko'rsatish, diqqatini jalb qilish maqsadida juda ham bo'rttirib



tasvirlaydi. Aslida, san'at va adabiyotning barcha vositalarida, ularning voqe bo'lishi va yashashida mubolag'a qatnashadi, mubolag'a ishtirok etmasa san'at ham, adabiyot ham bo'lmaydi. Ularning asosida real tasavvur qiladigan, odam to'liq ishonadigan mubolag'a bo'lsa, giperbola usulida bu yanada orttirib, o'ta kuchaytirib tasvirlanadi. Bu usul ko'pincha sifatlash, o'xshatish, jonlatirish kabi vositalar bilan hamkorlik qiladi va shu yo'l bilan o'zining behisob qudratini, o'lchovi yo'q kuchini yaqqolcharoq namoyish etadi [Umurov H. 2004. B. 160].

Tasvirdagi bo'rttirishni aql qabul qilsa-da, lekin hayotda u uchramaydi. Bu tablig' (ar. katta, kuchli ma'nosini beradi) deb yuritiladi. Misol uchun,

Umr bo'yi qo'limda jaraq-jaraq pul o'ynadi; qo'sha-qo'sha uchastkalar qurdim, qo'sha-qo'sha mashinalar oldim, bir sandiq oltin yig'dim ["Sariq devni minib". B. 96].

Tasvirdagi aqlga sig'maydigan, inson tafakkuri mantig'iga to'g'ri kelmaydigan mubolag'a ig'roq yoki ifrot (ar. haddan oshish, chegaradan tashqariga chiqish) deb yuritiladi. [Umurov. H. 2004. 161 bet]. Misol uchun,

Brigadadagi yigitlar uni "Kobra" deganicha bor. Har «ko'zi» piyoladek oyna taqib yuradi. O'zining yuzi lagandek. Razm solib qarsangiz, oppoq chinni laganning ikki chetiga ikkita piyola to'ng'irib qo'yilganga o'xshaydi ["Ikki eshik orasi". B. 6].

Tasvirdagi tasvur qilib bo'lmaydigan hayotda, haddan ziyod mubolag'ani hech kim hayotda ko'rmagan [Umurov. H. 2004. B. 162]. Misol uchun,

Qo'ng'iroq xuddi qornimning ichida chalingandek ko'nglimni ozdirib yubordi ["Sariq devni minib". B. 9].

Shoir yoki yozuvchi taassurotni kuchaytirish, hayajonni oshirish, majoziy ma'noda bo'rttirish maqsadida mubolag'a ishlatadi. Mubolag'ali tasvir, asosan, ikki tamoyilga (harakat va holatni bo'rttirishga qaratilgan) asoslangan bo'ladi. Bunday belgi va xususiyatlarni kuchaytirishga xizmat qiladigan mubolag'a zamirida tashbixiy bog'lanish bo'ladi. Mubolag'a tabiatan adabiy janrlarga bog'liqdir. Mubolag'a og'zaki nutqda ham, folklor asarlarida ham, yozma adabiyotda ham ko'p uchraydi [Boboyev T. 2001. B. 342].

Mubolag'a, xususan, romantik asarlarda, shuningdek satirada ko'p qo'llaniladi. Bolalar adabiyotida ham bu usul asosiy tasvir vositalaridan hisoblanadi. Biroq professor Abdurauf Fitrat aytganidek, mubolag'a chin (samimiy) bo'lsa, judayam oshirib yuborilmasa, zo'raki bo'lmasa, yasamalikdan uzoq, bo'lsa, tuyg'ulardagi kuchlilik — o'tkirlikni anglashga katta yordam beradi [Boboyev T. 2001. B. 344].

Mubolag'a narsa-hodisalarning xususiyat, belgilarini kuchaytirib, orttirib tasvirlashdir. Mubolag'a muayyan narsa-hodisalarni boshqalaridan alohida ajratib



ko'rsatish maqsadida qo'llanadi. Mubolag'a badiiy asarda aksariyat hollarda o'xshatish, jonlantirish, sifatlash, metafora kabi tasviriy vositalar bilan birgalikda qo'llanadi. Mubolag'a, ayniqsa, folklor asarlarida, xususan, ertak, dostonlarda ko'p qo'llanadi [Ulug'ov A. 2017. B. 255].

Xalk, og'zaki ijodi va mumtoz adabiyotimizda ba'zan orttirmali mubolag'alar ham uchrab turadiki, bular adabyoetshunoslikda "Budut" yoki "Ifrat" deb yuritiladi [Boboyev T. 2001. B. 344]. Misol:

Oh urarman, oh urarman,

Ohlarim tutsin seni

Ko'z yoshim daryo bo'lib,

Baliqlari yutsin seni. (Xalq qo'shig'i)

Mubolag'aga berilgan ta'rif va tavsiflar ham narsalarni, voqea va hodisalarni, his-tuyg'ularni, belgi xususiyatlarni o'ta bo'rttirib tasvirlash sifatida qayd etiladi. Mubolag'a ham tasvirning ta'sirchan chiqishiga, obrazli ifodalanishiga xizmat qiladi. Mubolag'aning so'z ma'nosining ko'chishiga asoslanishi uning troplar (ko'chim) guruhiga mansubligini ko'rsatsa ham, u tropning boshqa ko'rinishlaridan farq qiladi. Chunki tropning boshqa ko'rinishlarida ko'chma ma'no ma'lum bir belgi asosida o'xshatish, taqqoslash, voqea-hodisa yoki predmetlar o'rtasidagi bog'liqlikka ko'ra bo'lsa, mubolag'a esa to'g'ri ma'noda tushunmaslikni talab etadi. Mubolag'aga asoslangan ko'chim badiiy matnga nutq predmetiga nisbatan tinglovchi yoki kitobxon e'tiborini tortish va nutqning emosional ekspressivligini ta'minlash maqsadi bilan olib kiriladi. Mubolag'ada ifodalanayotgan axborot tabiiyki, hayot haqiqatiga mos kelmaydi. Lekin me'yor buzilsa, kutilgan effektga erishilmasligi ham mumkin. Aslida mubolag'ali nutq va matnning asosiy maqsadi axborot berish emas, balki tinglovchi yoki o'quvchiga ta'sir qilishdir. Yozuvchi so'zlar yordamida voqelikni yuksak badiiylik bilan aks ettirar ekan, asarni o'qishda o'quvchi ham uni aniq tasavvur etadi. Yozuvchi aniq tanlangan so'zlar yordamida muayyan voqea yoki hodisaning belgi va xususiyatlarini o'zi belgilagan maromda ochib beradi. Bunda so'zning qudrati uning umumiy ma'nosi bilan emas, balki matn mazmuni, uning pragmatik faktorlari bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Shunga asosan yozuvchilar so'zning asl va boshqa ma'no qirralaridan foydalanib mahorat ko'rsatadilar. Hozirgi kunda, mubolag'a yozuvchi yaratgan badiiy matnning muhim vositalaridan biri hisoblanadi hamda uning ishlatilish doirasi o'quv jarayoni bilan cheklanib qolmaydi. Shuni ta'kidlash lozimki, mubolag'a doimo nazm va nasr vakillari uchun muhim bo'lib kelgan. Mubolag'aning ishtirokisiz nazm ham, nasr



ham, hatto siyosiy nutq ham o'rganuvchilar uchun qiziqarli bo'lmagan bo'lardi. Shuning uchun, ushbu mavzu bir vaqtning o'zida ham qiziqarli, ham dolzarbdir.

Mubolag'a bo'rttirish badiiy usuli bo'lib, amalga oshirish imkoniyatlari nuqtai nazaridan shubhali, umuman aqlga sig'maydigan holda namoyon bo'ladi. So'zlovchining ma'lum bir hayajonlangan holatini ifodalagan mubolag'ani bo'rttirish bilan adashtirmaslik kerak. Misol uchun,

1. *Dodlagim, boshlarimni yerga urib dodlagim kelardi* ["Sariq devni minib" B.10].

2. *Menga qolsa, raislik u yoqda tursin, ming marta katta amaliyam misoli oyog'ingdagi etikday gap* ["Ikki eshik orasi." B. 69].

Yuqoridagi misollarni tahlil qilar ekanmiz, birinchi misolda "*boshlarimni yerga urib dodlagim*" mubolag'a personajning hissiyotini aniq tasvirlab beradi. Ya'ni, g'amginlik hissiyoti yorqin namoyon qilingan. Keyingi jumlada ham mubolag'a "*ming marta katta amaliyam*" ishlatilgan bo'lib, bu yerda personajning ma'lum bir lavozimga nisbatan bepisandlik munosabatini bildiradi. Ingliz tilida ham shunga o'xshash misollarni kuzatish mumkin. Misol uchun,

1. *He passed the sausages to Harry, who was so hungry he had never tasted anything so wonderful, but he still couldn't take his eyes off the giant* ["Harry Potter and the Philosopher's Stone." P. 41].

2. *I'd never tell anyone this in a million years* ["Can you keep a secret?" P. 20].

Keyingi jumlalarni talqin qilar ekanmiz, birinchi misolda keltirilgan mubolag'a "*so hungry he had never tasted anything so wonderful*" birikmasi qo'llanilgan bo'lib, personajning hayratini va fiziologik holatini ya'ni qorni ochligini anglatishini kuzatamiz. Ikkinchi misolda esa "*in a million years*" mubolag'asi personajning ma'lum bir sirni hech kimga aytish niyati yo'q ekanligini va uning xavotirlanganini tasvirlaydi.

Badiiy asarlarda mubolag'alar kundalik hayotda uchraydigan turli vaziyatlarni ifodalaydigan tushunchalarning qo'llanilishiga asoslangan bo'lishi ham, masalan, *Yoygan xamiringni ko'rpa qilib yotsa bo'ladi-ku* ["Ikki eshik orasi" B. 74].

Hovli supursa, yerda aksing ko'rinadi ["Ikki eshik orasi" B. 74].

Bu gaplarda mubolag'aning ancha ta'siri seziladi. Tasvirlanayotgan ish-harakatlar kundalik hayotga mos bo'lsada, yozuvchi tomonidan o'ziga xos tarzida mubolag'ali tasvirlangan.

Too often, for too long (juda tez-tez, juda uzoq) kabi giperboladan foydalanish badiiy personajlarning sabr-toqatsiz ekanligini, shuningdek ularning hissiyotlarini



o‘z harakatlarining mubolag‘asini ko‘rsatadi. Bu borada har ikki tilda ham yorqin bo‘yoqli mubolag‘alar mavjud:

1. *“I told you, I didn’t — but it’ll take **too long** to explain now — look, can you tell them at Hogwarts that the Dursleys have locked me up and won’t let me come back, and obviously I can’t magic myself out, because the Ministry’ll think that’s the second spell, I’ve done in three days, so —” “Stop gibbering,” said Ron [“Harry Potter and the Chamber of Secrets”. P. 25].*

2. *Lekin o‘rtoq serjant, **juda uzoq** olchar ekansiz [“Sariq devni o‘limi”. B. 22].* Birinchi misolda, **“too long”** mubolag‘asi personajning shoshilayotganini, nimanidir tushuntirishga vaqti kamligini va hayajonda ekanligini tasvirlashga yordam beradi. Ikkinchi misolda esa **“juda uzoq”** mubolag‘asi personajning sabrsizligini namoyon qilishda o‘rinli ishlatilgan. Har ikki misolda ham mubolag‘a mualliflarning muddaosini ro‘yobga chiqarishda qo‘l kelgan.

Mubolag‘a boshqa stilistik vositalar bilan ham birga kelishi mumkin. Bunda badiiy bo‘yoqdorlik yanada kuchayadi. O‘xshatish stilistik vositasi bilan kelgan mubolag‘alarni quyidagi misollar orqali tahlil qilish mumkin:

1. *Bir mahal bundoq qaragam, **bo‘ynim uch qarichgacha cho‘zilib ketibdi**, boshimni ko‘targan edim — Afrika o‘rmonlarida yashaydigan **jirafaning xuddi o‘zginasi bo‘lib qolibman** [“Sariq devni minib”. B. 60].*

2. *Ana, olisdan Alvasti ko‘prikning ovozi kelyapti. **Xuddi kattakon ajdar “kelaqol, seni yeyman”, deb vishillayotganday** [“Ikki eshik orasi” B. 21].*

3. *Under a tuft of jet-black hair over his forehead they could see a curiously shaped cut, **like a bolt of lightning** [“Harry Potter and the Philosophers Stone”. P. 17].*

4. *Uncle Vernon had been **treating him like a bomb** that might go off at any moment, because Harry Potter wasn’t a normal boy [“Harry Potter and the Chamber of Secrets”. P. 20].*

Yuqorida keltirilgan o‘zbek va ingliz tillaridagi misollarni qiyosiy tahlil qilar ekanmiz, har ikki tilda ham o‘xshatish va mubolag‘a stilistik vositalari birga qo‘llanilgan holatlar mavjudligiga guvoh bo‘lamiz. Birinchi jumlada **“bo‘ynim uch qarichgacha cho‘zilib ketibdi”** mubolag‘asi va **“jirafaning xuddi o‘zginasi bo‘lib qolibman”** mubolag‘ali o‘xshatish personajning o‘zining tashqi ko‘rinishiga bo‘lgan hayratini yorqin tasvirlaydi. Ikkinchi misolda, ko‘prikga nisbatan ishlatilgan **“xuddi kattakon ajdar “kelaqol, seni yeyman” deb vishillayotganday”** mubolag‘ali o‘xshatish personajning qo‘rquv hissiyotini namoyon qilishda katta rol o‘ynagan. Uchinchi misolda, personaj peshonasidagi chandiqa nisbatan ishlatilgan **“like a**



“bolt of lightning” mubolag‘ali o‘xshatish chandiq shaklini tasavvur qilish bilan asarda bu narsa o‘z ahamiyatiga ega ekanligini tushunadi. To‘rtinchi misolda esa, *“treating him like a bomb”* mubolag‘ali o‘xshatish Harry ismli personajning ruhiy holatini va xarakterining o‘ziga xos ekanligini tasvirlab, boshqa bir personaj ya‘ni Vernon tog‘aning Harryga bo‘lgan munosabatini ochib berishga yordam beradi. Mubolag‘a obrazli bo‘rttirishga, shu orqali asarning ta‘sir kuchini oshirishga erishish yo‘llaridan biri bo‘lgani bois ham, yozuvchilar unga ko‘p murojaat qilib o‘z asarlarini kitobxonlarga maqbul bo‘lishida, muvaffaqiyat qozonganlar. Aksariyat hollarda mubolag‘a personajlarning ma‘lum bir hissiyotini shunchaki namoyon qilmasdan voqea-hodisalarning qanday ro‘y berayotganini yaqqolroq namoyon qilish, kitobxon ko‘z oldida yorqinroq gavalantirish uchun tasvir ob‘ektini kattalashtiriladi. Shunday qilib, mubolag‘a o‘zbek va ingliz tillarida badiiy personajlarning turli hissiyotlarini yanada teranroq idrok etishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Begmatov E, Madvaliyev A, Mahkamov N, Mirzayev T, To‘xliyev N, Umarov E, Xudoyberganova D, Hojiyev A. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. II jild – Toshkent: Yangi O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2006. – 672 b.
2. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2001. – 558 b.
3. Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. – 308 b.
4. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. — 264 b.
5. Xojiaxmedov. A. She‘riy san‘atlar va mumtoz qofiya. – Toshkent: Sharq. 1998. – 160 b.
6. Арнольд И. В. Стилистика современного английского языка: (Стилистика декодирования): 3-е изд. - Москва: Просвещениею 1990. – 384 б.

Badiiy adabiyotlar ro‘yxati:

7. Hoshimov O‘. Ikki eshik orasi. – Toshkent: Sharq, 2012. – 215 b.
8. Kinsella S. Can you keep a secret? – London: Published Dell Publishing Company, 2011. – 368 p.
9. Rowling. J. K. Harry Potter and the Chamber of Secrets. – New York: Scholastic press, 1999. – 342 p.



10. Rowling. J. K. Harry Potter and the Philosopher's Stone. – New York: Scholastic press, 1999. – 251 p.
11. To'xtaboyev X. Sariq devni minib. – Toshkent: Yangi asr avlodi. 2010. – 236 b.
12. To'xtaboyev X. Sariq devning o'limi. – Toshkent: Yangi asr avlodi. 2015. – 268 b.

